
“Murojaatnoma”dan keyingi mulohazalar: Ta’limdagi islohotlar — hayotiy zarurat

Kecha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga va xalqqa navbatdagi Murojaatnomani yo‘lladi. Ushbu Murojaatnoma yangi O‘zbekistonni yaqin yillarda kompleks rivojlantirishning ustuvor jihatlarini belgilab bergani bilan ahamiyatlidir. Avvalo, shuni ta’kidlashimiz kerakki, Murojaatnomada jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning barcha sohalarini qamrab olingan. Jumladan, unda muhtaram Prezidentimiz fan, ta’lim tizimiga taalluqli bir qator strategik yo‘nalishlarni belgilab berilarki, undan kelib chiqadigan vazifalar tizimida faoliyat olib borayotgan mutaxassislardan yangilanayotgan jamiyatimizning ta’lim siyosati mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglashni taqozo qiladi. Prezidentimizning Parlamentga Murojaatnomasini xalqimiz katta qiziqish bilan qarshi oldi. Unda barcha sohalar kabi ta’lim sohasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Eng muhimi, ta’limning barcha bosqichlari bilan bog‘liq ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Xususan, ta’lim muassasalarida qobiliyatli o‘quvchilar bilan ishlash alohida ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Shuningdek, maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish bo‘yicha ham ko‘rsatmalar berildiki, bu ishlarni amalga oshirish, avvalo, tizimdagi rahbarlardan zamonaviy fikrlashni va xorij amaliyotini yaxshi bilishni talab qiladi. Prezidentimizning ushbu gaplari ta’lim islohotlarida ijtimoiy himoya masalasining aks etishiga yorqin misol bo‘la oladi, albatta. Umuman, ta’limda ijtimoiy himoya bizda davlat tomonidan kafolatlangan ekanini ham ta’kidlab o‘tishimiz kerak, nazarimda. Barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib, yakdil va ahil bo‘lib harakat qilsak, halol-pok bo‘lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqimiz. Bu yo‘lda qanday qiyinchilik va mashaqqatlar bo‘lmasin, barchasini mardona yengib o‘tishga tayyormiz. Taraqqiyotga – faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishiladi.

Shavkatjon MADAMINOV,
Rishton tumani XTB mudiri.

2022-12-21 10:18:13